

Shamsiyeva Zilola Askarovna

Termiz davlat universiteti

Etnologiya, etnografiya va antropologiya ixtisosligi

3-bosqich tayanch doktoranti

ORCID-0009-0000-8591-6082

UDK- 392.51

JADIDLARNING MAROSIMLARGA OID FIKR-MULOHAZALARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada XX asr taraqqiyparlarining oilaviy marosimlar, shu jumladan, nikoh to'yi marosimlarining o'tkazilish tartibiga oid tanqidiy qarashlari o'rganilgan. Xususan, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Xoja Muin, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalarining matbuotda e'lon qilingan maqolalari, badiiy va sahna asarlarida to'ylarning o'tkazilishida kuzatiladigan isrofgarchilik, dabdababozlik, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yish kabi illatlarning ifoda etilgani tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, oilaviy marosim, nikoh to'yi, isrofgarchilik, dabdababozlik, non shikanon, fотиha, nikoh, ro'yi binon, domod talbon.

ЧТО КАСАЕТСЯ РИТУАЛЬНЫХ КОММЕНТАРИЕВ ДЖАДИДОВ

Аннотация. В статье рассматриваются критические взгляды прогрессивных деятелей XX века на проведение семейных обрядов, в том числе свадебных. В частности, были проанализированы опубликованные статьи, литературные и театральные произведения таких деятелей-джадидов, как Абдурауф Фитрат, Махмудходжа Бехбудий, Ходжа Муин, Мунавваркори Абдурашидханов на предмет выражения в них пороков, наблюдаемых на свадьбах, таких как расточительность, пышность, чрезмерные траты.

Ключевые слова: джадид, семейная церемония, свадьба, экстравагантность, пышность, хлеб шиканон, фатиха, никох, ро'йи бинон, домод талбон.

JADIDS' COMMENTS ON RITUAL

Annotation. The article studies the critical views of the progressives of the 20th century regarding the conduct of family ceremonies, including wedding ceremonies. In particular, the articles published in the press, literary and theatrical works of such modern figures as Abdurauf Fitrat, Mahmudkhodja Behbudiy, Khoja Muin, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and their expression of the vices of extravagance, pomp, and excessive spending observed in the conduct of weddings are analyzed.

Keywords: jadid, family ceremony, wedding, extravagance, pomp, bread shikanon, fatiha, nikoh, ro'yi binon, domod talbon.

Xalqimizda baxtli onlarni oila, qarindosh-urug', mahalla, yaqin insonlar davrasida "to'y" berib nishonlash qadim zamonlardan qolgan urf-odatdir. SHu bilan birga "to'y" etnosning madaniyati, urf-odati, qarindosh urug'chilik va qo'shnichilik munosabati, mentaliteti, diniy qarashlari va tasavvurlari, an'anaviy marosimlarini o'zida mujassam etgan voqelikdir.[1] Jahon tamadduni beshiklaridan biri hisoblangan qadimiy Buxoro vohasi o'ziga xos boy etnografik makon hisoblanadi. Ma'lumki, voha tarixi bo'yicha ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan, o'rganish uchun manbalar ham anchaginani tashkil etadi. Shuningdek, voha nikoh to'yi marosimlarini tarixiy-etnografik nuqtai nazardan o'rganishda asosiy nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan tarixiy adabiyotlar qatorida jadid namoyandalarining asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish bo'yicha Oliy Majlis palatalari kengashlarining qo'shma qarori loyihasi ishlab chiqiladi. Bu haqda Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi prezident farmonida belgilangan.[2] Ushbu loyihada to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish, yoshlarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha yangi mexanizmlar nazarda tutiladi. Loyiha 2025-avgustga qadar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, to'y-hasham, ma'raka, marosimlarda

ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida ijtimoiy roliklar ishlab chiqish, ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, ortiqcha isrofgarchilikning zararlari haqida qisqa metrajli film, ijtimoiy reklama, ko'rsatuv, eshittirish, podkastlar, maqolalar orqali targ'ibot ishlarini amalga oshiriladi. Isrofgarchilikning oldini olish borasida keng qamrovli tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib boriladi. Oilaviy marosimlarni tartibga solish, isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslik zarurligi haqida prezident Shavkat Mirziyoyev bir necha marta ta'kidlagan. U 2017-yil avgust oyida ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvda shunday [degan edi](#): "Tan olishimiz kerak, to'y va boshqa tadbirlar bilan bog'liq ortiqcha xarajatlar nafaqat minglab oilalarning iqtisodiy ahvoriga, balki ularning butun hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda". Bugungi kundagi marosimlar o'tkazilishi bilan bog'liq ijtimoiy muammolar bir asr ilgari jadidlarning ham doimiy ravishda diqqat markazida bo'lgan.

XX asr boshlarida Turkistonda jamiyatning taraqqiyparvar kuchlari o'lka hayotidagi mavjud illatlarni ochiqchasiga tanqid qilib, ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga kirishganlar. To'ylarda haddan ziyoda isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilib, sharoitiga qaramay, to'y qilishining oqibatida ko'pgina kishilar qarzga botayotgan, qarzдорlar bor mol-mulki va yeridan ajralib qolayotgan edi. Shuningdek, to'ylardagi dabdababozlik, isrofgarchilik va ortiqcha xarajatlar masalasi jadidlar uchun ham juda muhim va ko'zdan qochirib bo'lmaydigan mavzu sanalgan. Shu tufayli, isrofgarchiliklarga to'la to'ylarga nisbatan tanqidiy munosabat jadidlarning gazetalarda chop etilgan maqolalarida, dramalarida, romanlarida doimiy ravishda aks ettirilgan. Milliy matbuot sahifalarida millat uchun zararli bo'lgan bunday illatlar tez-tez tanqid ostiga olinadi va xalq millat manfaati uchun xizmat qilishga da'vat etiladi. Ayniqsa, 1914-1915-yillarda chop etilgan "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalarda bu borada o'tkir fikrlar bildiradi va millatni asrlar bo'yi davom etayotgan uyqudan uyg'otishga harakat qiladi. adid taraqqiyparvarlar to'y marosimlarini isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan, kichik qilib o'tkazishni va ortiqcha pullarni bolalarni o'qitishga sarflashni taklif etadilar. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarixiy xotira va taraqqiyparvarlar haqida gapirar ekan, –"Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir", –deb ta'kidlagan edi.[3;288]

Oila va nikoh masalalari sovet davri olimlari diqqat-e'tiborini ham o'ziga tortib kelgan. XX asrning boshlarida o'zbeklarning oila va nikoh munosabatlariga bag'ishlangan ishlar, asosan, o'sha davrda Turkistonda jadidlari va rus mualliflarga tegishli. Xususan, bu borada maqolada jadid namoyandalari- *Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Xoja Muin, Munavvarqori Abdurashidxonovning asarlarida keltirilgan fikr-mulohazalari maqola uchun ilmiy asos vazifasini bajardi.*

XX asr Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat ham ushbu masalaga alohida e'tibor bergan. Fitrat mazkur asarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto, go'daklarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi masalalargacha chuqur yoritib bergan. Ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi o'rni, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Shu bilan birga sog'lom, ma'rifatli oila va u voyaga etkazadigan har tomonlama yetuk avlodning shu millat va mamlakat iqtisodiy-siyosiy rivojining, shu yurt shonu- shuhrati, qudratining poydevori, abadul-abad mavjudligining muhim shartlaridan ekanligi ta'kidlangan. Xususan, Abdurauf Fitrat ushbu asarida mahr va toy qanday bo'lishi xususida so'z yuritadi.[4;28-29]

Turkiston jadidchilik harakatining rahbari, buyuk taraqqiyparvar Mahmudxo'ja Behbudiy "Bizni kemiruvchi illatlar" nomli maqolasida xalqni kemiruvchi haqiqiy illat, har qanday davrdan eng og'iri bo'lgan to'y va ma'rakalar butun Turkiston shaharlari va qishloqlarini qamrab, xalqni inqirozga yo'naltirayotganini yozadi. Odamlarimiz kuniga 18-20 soat mehnat qilib, yemay-ichmay, dam olmay "o'z qatorindagi odamlarni qilgan to'yidan ziyodroq" to'y qilishni maqsad qilishadi. Bunday to'y o'tkazishdagi musobaqalar natijasida qanchadan-qancha kishilar ishlab to'plaganini bir-ikki kunda sovurib, yana qarzhavola qilib, bor budidan ayrilganlar. M. Behbudiy yozadi: "Katta to'y qilib xotun olgan bechoralarning holiga yig'lamoq kerak. Uch kunlik to'yning azasi ba'zi oilalarda o'n yil, hatto bir umr surar, balki bevtan va xonavayronlikka sabab bo'lur". Behbudiy qarzдорlarning achchiq qismati haqida yozar ekan, qarzdan qutilish uchun ular yer va hovlilarini sotishga majbur bo'layotganlari, bu holat yana 20-30 yil davom etsa, yer va hovlilar ajnabiylarga o'tib, aksar xalqimiz gadoylik darajasiga tushib qolishiga achinadi.[5;338-342]

Munavvarqori oilaviy marosimlar, shu jumladan, nikoh to'yi marosimlarida uchraydigan isrofgarliklar, behuda harakatlarni ham tanqidiy ravishda o'z maqolarida yozib qoldirgan. Jumladan, u shunday deydi: "Zakot bermok bo'lg'on holda bir boy zakot bermasa, hech kimning ishi yo'q, ammo o'g'lini uylantirib, bazm bermasa, avomlar o'rtasida malomatga mustahiq bo'lur." [6] Shuningdek, Munavvarqori kelinni kuyov uyiga etish holatini quyidagicha tasvirlaydi: "Ikkinchi nikoh kuni kelinni

kuyov hovlisig'a olib borurda ko'riladigon bir rasmi shani'adurki, bir arobag'a kelinni solib, ul arobaning oldida ikki-uch nafar xotunlar beibo chirmanda chalib va hofizlik qilib bormoqlari. Agarchi kulliyatan bo'lmasa ham aksar joyda ko'rilmog'dadur. Bu badbaxtlarning avrat ovozi eshitib, ko'p musulmonlar gunahkor bo'lmoqdadur." [7]

Yana bir jadid namoyandasi Xo'ja Muin ham ayrim kichik marosimlarni o'tqazish keraksiz harakat ekanligini, «Non shikanon», «Fotiha», «Nikoh», «Ro'yi binon», «Domod talbon» ning har qaysisi bir to'y bo'lib, minglarcha so'm isrof bo'lishi, bu to'ylardan «nikoh» va «ro'yi binon»dan boshqalari ortiqcha ekanligi, «non shikanon»ga 3-4 kishidan ziyoda odam yuborishga hojat yo'qligi, ba'zi kishilarg'a to'n kiygizmak, to'ydan non va shiravor olib ketishga barham berish kerakligi, nikoh to'yinda kuyovdan «shohi ulog'», yog' puli va shunga o'xshash narsalar olishni to'xtatish lozimligi, nikohdan keyin kuyovga kiyimlar kiydirish, «poyandoz» tutish, qizni olov atrofida aylantirib, uning oldida bir necha hayosiz kishilarg'a qabih alfozli ashulalar o'qittirib kuyovning uyig'a etish kabi yomon urf va rusumlar man etilishi kerakligi, kuyovning uyida kelinni olov atrofida aylantirish majusiylardan qolgan bir odat ekanligi xususida yozgan. [8]

Buxoro amiri Said Olimxon (1910–1920) hukmronligining dastlabki yilidayoq to'y-ma'rakalardagi isrofgarchiliklar va dabdababozlikni tugatishga e'tibor qaratib, birinchi navbatda viloyat beklari, qozilar, amlokdorlar va boshqa mansabdor shaxslarning oddiy oilalar ma'rakalarida ishtirok etishini taqiqlab qo'ygan. Ularga faqat bir-birlarinikida bo'ladigan marosimlarga borishga ruxsat berib, o'shanda ham sho'rvadan boshqa ovqat tanovul qilishni man etgan. Uning 1911-yil mart oyida "Juda isrofli to'ylarni tugatish to'g'risida" chiqargan farmoni ham XX asr boshlaridagi to'ylarga davlat siyosatining munosabatini o'rganishda manba bo'lib xizmat qildi. Unga ko'ra, to'ylarda 6-7 xil ovqat qilish taqiqlanib, palovdan boshqa ovqat berganlarga 75 darra urish jazosi tayinlanadi, sunnat va nikoh to'ylarida tashkil qilinadigan ulog' va poyga bekor qilinadi. Bu farmonga bo'ysunmaganlar o'limga mahkum etilishi belgilab qo'yilgan. To'yda mehmonlarning har biriga chopon berish rasmi man qilingan. 1916-yil 5-iyunda esa Amir to'yga kelganlarga qand berish odatini taqiqlovchi yana bir farmonni imzolaydi. [9]

1903 yilning 18 dekabrda "Turkiston viloyatining gazetasi"dagi maqolada ta'kidlanishicha, mahalliy aholi tomonidan "betartib va befoyda" to'ylar o'tkazilgan. Unda to'ydan oldingi urf-odatlar to'g'risida tanqidiy fikrlar aytilgan edi. Masalan, bir xonadonning qizini kelin qilmoqchi bo'lishsa, o'sha uyga bir xotin bir patnis meva va to'rtta yog'liq patir bilan borib, qizning ota-onasi bilan gaplashib, ular rozilik berishsa, mazkur xotinga oq ro'mol o'ratib yuborishgan. Ertasi kuni ikkala taraf ham boy bo'lsa, yana to'rt odam qiz tarafga kelgan va ularga ziyofat qilib berilgan, ularning har biriga movut chakmon berib yuborilgan edi. Undan keyin ertasi kuni bir lagan palov va bir lagan meva, 30ta katta yog'liq patir hamda olti kiyimlik ipaklik va ipaksiz narsalarni ikki xotin olib borib, kechgacha qizning uyida mehmon bo'lishgan, qaytishlarida ularga 2 jo'ra atlas va 2 kiyimlik chit yoki farang berib jo'natilgan. Bunday sarf-xarajatlarga esa aholining aksariyat qismining qurbi yetmas edi. Qarz evaziga uylanib xonavayron bo'lgan va bevatn qolgan odamlar son-sanoqsiz bo'lib, jamiyatning haqiqiy muammolaridan biriga aylangan edi. [10]

1917-yil fevral oyida Chor hukumati yakun topgach, jadidlar yangi Rossiya hukumati tarkibida avtonom Turkistonda tashkil etishga kirishadi. Bu borada yo'l boshchilik qilgan "Sho'royi islomiya" tomonidan tashkil etilgan qo'mita to'y uchun sarf-xarajatlarning kamaytirilishi va u bilan bog'liq marosimlarning ixchamlashtirilishi xususida taklif bilan chiqadi. Sovet davrida dinga qarshi harakatlar olib borilgan bir paytda O'rta Osiyo xalqlari orasida avvalgidek dabdabali bo'lmasa ham, to'y marosimlari bo'lgani ayon. 1949-yilda tayyorlangan rasmiy hisobotga ko'ra musulmonlar namozdan ham ko'ra ko'proq nikoh to'yi, sunnat to'yi, janoza marosimlarida ishtirok etishar edi. Bu "chuqur ildiz otgan" marosimlarga qarshi kurashish kommunistlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. 1960-yillarning ikkinchi yarmida ham sovet usulida nikoh marosimini o'tkazishni ma'qul ko'ruvchilar soni oz emas edi. Ularning fikricha, nikoh aslida diniy emas, milliy marosim sanalgan. [11]

Ta'limni isloh etishga bel bog'lagan jadidlar tabiiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni ham qo'lga olishni boshlaydilar. To'y masalasi ular uchun juda muhim, dolzarb va ko'zdan qochirib bo'lmaydigan mavzu sanalgan. 1914-yil oxirlarida, ayni Birinchi jahon urushi bo'layotgan paytda Samarqand jadidlaridan Hoji Muin va Nusratulla Qudratulla sahnalashtirgan "To'y" nomli dramada juda boy bir odam o'g'lining sunnat to'yi uchun haddan tashqari ko'p pul sarflab, oxir-oqibat xonavayron bo'ladi. [12] Bundan tashqari, 1914-yil aprelida toshkentlik jadidlar nashr etgan "Sadoyi Turkiston" gazetasida "To'y xususida savol" sarlavhali maqola bosiladi. Rahmatulloh Ahmad o'g'li bu maqolada o'zining boshidan o'tganlarini yozadi: "Men avvalroq Toshkentda yaxshi tanilgan savdogarlardan bo'lib, doim 300-400 ming so'm miqdoridagi pul va mollarga egalik qilar edim. Biroq vaqt o'tishi bilan mendan yoshroq savdogarlar va ziyoli chet elliklar ila bo'lgan ish raqobati oqibatida o'z mavqeyimni yo'qotdim."

Ayni paytda uzoq yillar davomida yig'gan pulimni bolalarim to'ylariga sarf qilib bo'ldim, ammo yana olti farzandimni to'yi kutib turibdi". Yoki mashhur o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy 1915-yilda yozilgan "Baxtsiz kuyov" dramasi ota-onasiz yosh yigit amakisining qistovi ostida o'z uyini garovga berib, katta qarz olib, dabdabali to'y qilishi, biroq to'ydən keyin qarzini to'lay olmasligi va natijada uyini qo'ldan boy berishi, bor umidini yo'qotgan yosh oila o'z joniga qasd etishi kabi fojiali voqealarni tasvirlagan.[13]

Turkiston taraqqiyparvarlari nafaqat davriy matbuotdagi chiqishlari bilan emas, balki to'y va ma'rakalar islohini amalda ham qo'llashga harakat qilgan edilar. Turkiston jadidlarining rahnamalaridan Mahmudxo'ja Behbudiy 1909-yil 15 -aprelida Maqsud Xo'ja ismli o'g'liga xatna to'yi qilib 1000 rubldan ham kam pul sarflagan. To'yga ketadigan ortiqcha sarf-xarajat o'rniga Samarqanddagi kutubxonaga kitoblar xarid qilgan, bu kitoblar Rossiya va Turkiyadan keltirilgan. 1909 yilning 13 mayida "Turkiston viloyatining gazetisi"da M.Behbudiy o'tkazgan to'yga Samarqand aholining munosabati ikki xil bo'lganini yozar ekan, ba'zilar M.Behbudiydan o'rnak olish kerakligini ta'kidlasa, boshqalar uning boyligi va obro'sini hisobga olib kamida 2000-3000 rubl sarflashi kerak edi, deb tanqid qiladi. Bu misol jadidlarning bu bid'atga qarshi kurashda ham o'rnak bo'lganligini va millat manfaatini ko'zlaganligini ko'rsatadi. Shuningdek, S.Shodmonovning ushbu maqolasida keltirilishicha, o'sha davr ma'lumotlarida keltirilishicha, kambag'allar to'yga 200 rubldan 1000 rublgacha sarflaganlar. Boylar esa to'ylarga 5000 dan 10 000 rublgacha xarajat qilganlar. Bu o'z davriga nisbatan salmoqli mablag' hisoblangan. O'sha davrda 1 ta qo'ying o'rtacha bahosi 2,5-3 rubl (12,5 yoki 15 tanga) bo'lgan. May oyida, ya'ni qo'y eng qimmat bo'lgan vaqti 2 yoshli qo'ylar 7 rublgacha (35 tanga) bo'lgan. 1 botmon bug'doyning narxi 1,5-2 rubl bo'lgan.[14] Bundan tashqari, Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni, talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlariga yuborib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqqa sa'y qilish kerak", degan fikrni bildirgan.[16]

Xulosa qilib aytganda, jahondagi har bir xalq asrlar davomida o'z milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, ma'naviy-madaniy merosini asrab, ularga katta qiziqish bilan yondashib kelmoqda. Chunki ular insonning o'zligini anglashi uchun xizmat qilishi barobarida ma'lum xalqlar an'alarining rivoji va saqlanish holatini tarixiy-etnografik nuqtai nazaridan o'rganishga imkoniyat yaratmoqda. Natijada xalqning turmush tarzi, buguni va kelajagi bilan bog'liq o'y-kechinmalari, ruhiyati aks etgan folklor namunalarini o'rganishga, ularning millat ma'naviy yuksalishida tutgan o'rnini asoslashga doir yangi xulosalar chiqarish imkonini bermoqda. XX asr boshlarida ham to'ylar va ularda yo'l qo'yilayotgan ortiqcha sarf-xarajatlarga nisbatan turlicha munosabatlar mavjud bo'lganini hamda bu borada qizg'in bahs-munozaralar bo'lib o'tganini ko'rish mumkin. Umuman olganda, to'y har bir davrning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib beradi. To'y har qanday tanqidlarga uchrasa ham, bugungi kunda ham sobit tura olishga muvaffaq bo'lganini kuzatish mumkin. Shu sababli, respublikamizda to'ylarni o'tkazish bilan bog'liq iqtisodiy sabablar tufayli kelib chiqadigan ijtimoiy muammolarning oldini olish maqsadida marosimlarni o'tkazishga davlat siyosati darajasida yondashilayotgani e'tiborga loyiq. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019-yil 14-sentabrdagi 2736-III-son "To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish to'g'risida"gi qo'shma qarori buning yorqin dalilidir.[17]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аскарлов М. Тўй: кеча, бугун ва эртага: этнографик таҳлил // www.uzanalytics.com. 2019 йил, 13 феврал. (мурожаат этилган сана: 01.05.2025)
2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.04.2025 yildagi PF-71-son. <https://lex.uz/pdfs/7486412>
3. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – B.288.
4. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари / Масъул мухаррир Д.А. Алимова. Тарж. ва изоҳлар муаллифи Ш. Воҳидов. - 2-нашр. Т., 2000-Б.28-29.
5. Behbudiy M. Bizni kemiruvchi illatlar/«Oyna» jurnali, 1915 yil, 13-son,-B.338—342.;https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-bizni-kemiruvchi-illatlar-1915?_cf_chl_tk=BVB3PSfMydrY.8hhD5MMea712VIZGHVzQTfKk53Igs0-1747653343-1.0.1.1-g_X0BQfFnI8pXN7MDoLdp8_3oRtrK0Akdyf6hp3rOSg
6. Абдурашидхонов М. Никоҳ тўғрисида (1906) //«Тараққий» газетаси, 1906-йил, 7-март.
7. Ҳожи Муин. Оила тарбияси./Меҳнаткашлар товуши.1918-йил, 9-июль.
8. Ҳожи Муин. Оила тарбияси./Меҳнаткашлар товуши.1918-йил, 9-июль.

9. Jamolova D.M. Buxoro amiri to'y va marosimlarni qanday tartibga solgan?/ 31.10.2022.<https://oyina.uz/uz/article/1202>
10. Shodmonova S.Eskirmas muammolar: XX asr boshlarida Turkistondagi to'ylar. <https://davr24.uz/archives/1298>.
11. Karimova M. O'zbek to'ylari: o'tmishda va hozir./"Jadid" gazetasi, 2025-yil 21-fevral, 8-son. <https://oyina.uz/uz/article/3537>;
12. <https://jadid.uz/ozbek-toylari-otmishda-va-hozir/>
13. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qodiriy/abdulla-odirij-bahtsiz-kuyov-drama/>
14. Shodmonova S.Eskirmas muammolar: XX asr boshlarida Turkistondagi to'ylar. <https://davr24.uz/archives/1298>.
15. To'yeva M. Sh., Abdumutalova Sh. A. Jadidlar merosining bugungi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi o'ziga xos jihatlari/"Jadidlar merosining bugungi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi ahamiyati": Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, – Toshkent: O'RQK Akademiyasi, 2024.-B.242.
16. "Тўй-хашамлар, оилавий тантаналар, марака ва маросимлар, мархумларнинг хотирасига бағишланган тадбирлар ўтказилишини тартибга солиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қўшма қарори. <https://lex.uz/ru/docs/5153833>